



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	




Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaniing psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'kklanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeovich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Jumayeva Guzal Xayriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti



Ilmiy rahbar: Raximov Zokir Toshtemirovich
Renessans ta'lim universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari, motivatsiyaning psixologik mohiyati hamda uning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv motivlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va rag'batlantirish usullarining didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ichki motivatsiyasini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar asoslab berilgan. Maqolada motivatsion muhitni shakllantirish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, faolligi va o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatini rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, o'quv motivi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik imkoniyat, interfaol metod, innovatsion texnologiya, bilishga qiziqish, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article scientifically analyzes the theoretical and pedagogical foundations of forming learning motivation among primary school students, the psychological essence of motivation, and its pedagogical potential within the educational process. The study also highlights effective mechanisms for developing learning motivation in primary education, as well as the didactic possibilities of interactive methods, innovative technologies, and encouragement techniques. Particular attention is paid to pedagogical factors that contribute to increasing students' cognitive interest, developing intrinsic motivation, and enhancing the effectiveness of education. The article further examines the creation of a motivational learning environment aimed at fostering independent thinking, active participation, and a positive attitude toward learning activities among primary school students.

Key words: motivation, learning motivation, primary education, pedagogical potential, interactive method, innovative technology, cognitive interest, educational effectiveness.

Аннотация: В статье научно проанализированы теоретико-педагогические основы формирования учебной мотивации у учащихся начальных классов, психологическая сущность мотивации и её педагогические возможности в образовательном процессе. Освещены эффективные механизмы развития учебной мотивации в системе начального образования, дидактические возможности интерактивных методов, инновационных технологий и способов стимулирования. В исследовании обоснованы педагогические факторы, способствующие повышению познавательного интереса учащихся, развитию внутренней мотивации и повышению эффективности обучения. Также рассматриваются вопросы формирования мотивационной среды, направленной на развитие самостоятельного мышления, активности и положительного отношения учащихся к учебной деятельности.

Ключевые слова: мотивация, учебная мотивация, начальное образование, педагогические возможности, интерактивный метод, инновационная технология, познавательный интерес, эффективность обучения.



KIRISH

Jahon ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda shaxsning intellektual salohiyatini oshirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil fikrlashi va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim davri shaxs kamolotining fundamental bosqichi bo'lib, aynan shu davrda bolaning o'qishga munosabati, bilishga qiziqishi va ta'limiy qadriyatlari shakllanadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning ichki motivatsiyasi bilan belgilanmoqda. Motivatsiya o'quv faoliyatining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi bo'lib, u o'quvchining bilim olishga intilishi, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ehtiyoji va o'zini namoyon qilishiga xizmat qiladi ^[2]. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda ^[3]. Mazkur jarayon o'quvchilarning o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida talqin qilinib, uning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi o'rni alohida e'tirof etiladi ^[1]. Motivatsion jarayonlarning rivojlanishi o'quvchining bilishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi, maqsadga intilishi hamda ijtimoiy-faol pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik va psixologik manbalarda motiv tushunchasi insonni muayyan faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj, manfaat, qiziqish va maqsadlar tizimi sifatida izohlanadi. O'quv motivi esa o'quv faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan ichki psixologik omillar yig'indisini anglatadi ^[2]. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda motivatsion ehtiyojlar ko'proq emotsional taassurotlar, rag'bat, muvaffaqiyat hissi va o'qituvchining pedagogik ta'siri asosida shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasiga oid ilmiy manbalarda o'quvchilarning bilishga qiziqishini rivojlantirish, ta'limiy faolligini oshirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik asoslari keng yoritilgan ^[3]. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida motivatsion muhit yaratish, ta'limni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning ichki motivlarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida baholalanadi.

So'nggi yillarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda motivatsion yondashuvning samaradorligi alohida ta'kidlanmoqda ^[4]. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan birga, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini ham oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Interfaol metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari motivatsiyasiga ta'siri chuqur o'rganilgan bo'lib, bunda o'quvchining faol subyekti sifatida dars jarayonida ishtirok etishi muhim omil sifatida ko'rsatiladi ^[5]. Xususan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "FSMU" kabi metodlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda o'yin texnologiyalarining motivatsion imkoniyatlari ham keng tahlil etilgan. Didaktik o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va gamifikatsiya elementlari boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ularning ta'limiy ehtiyojlarini tabiiy ravishda rivojlantiradi ^[6]. Shu bilan birga, o'yin faoliyati o'quvchilarda emotsional barqarorlik, ijtimoiylashuv va muvaffaqiyatga intilish hissini shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonida yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ilmiy tadqiqotlarda multimedia vositalari, elektron platformalar va raqamli ta'lim resurslarining boshlang'ich sinf o'quvchilari motivatsiyasiga ijobiy ta'siri qayd etilgan ^[7]. Raqamli vositalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning diqqatini jalb etish, ko'rgazmalilikni kuchaytirish va ta'lim jarayonining interaktivligini ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik motivatsiyani rivojlantirishda rag'batlantirish mexanizmlarining ahamiyati ham ilmiy jihatdan asoslangan ^[8]. Pedagogik rag'batlantirish o'quvchilarda o'ziga ishonch, muvaffaqiyatga erishishga intilish va ta'lim faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.



Oila va maktab hamkorligining motivatsion jarayonga ta'siri ham ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan ^[9]. Ota-onalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi, farzandlarini qo'llab-quvvatlashi va ijobiy psixologik muhit yaratishi o'quvchilarning ichki motivlarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirish muammosi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, uning pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida chuqur o'rganish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot boshlang'ich ta'lim jarayonida motivatsion muhitni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan pedagogik nazariya hamda motivatsion pedagogika tamoyillari tashkil etdi.

Motivatsiya fenomenining psixologik va pedagogik mohiyatini ochib berishga qaratilgan nazariy tahlil metodidan keng foydalanildi. Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning nazariy asoslari tizimlashtirildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida motivatsiyaning tarkibiy komponentlari, ichki va tashqi motivlar, bilishga qiziqish, ta'limiy ehtiyoj hamda pedagogik rag'batlantirish mexanizmlarining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi.

Tizimli yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim jarayonining barcha tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Xususan, o'qituvchi faoliyati, o'quv muhiti, pedagogik texnologiyalar, o'quv materiallarining mazmuni hamda o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari motivatsion jarayonning muhim tarkibiy qismlari sifatida o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik kuzatish metodidan foydalanildi. Mazkur metod orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi faolligi, bilishga qiziqishi, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabati hamda rag'batlantirishga nisbatan reaksiyalari kuzatildi. Kuzatish natijalari o'quv motivlarini shakllantirishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-tahliliy metod ham muhim o'rin egalladi. An'anaviy va innovatsion ta'lim metodlarining motivatsion ta'siri o'zaro taqqoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy faolligiga ko'rsatadigan pedagogik samarasi baholandi. Jumladan, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim va raqamli vositalarning o'quvchilarning ichki motivatsiyasiga ta'siri tahlil qilindi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali ilmiy tadqiqotlar natijalari integratsiyalandi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda motivatsion muhit yaratish, rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish va individual yondashuvni ta'minlash asosiy komponentlar sifatida belgilandi. Muhim jihatlaridan biri shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashdan iborat bo'ldi. Mazkur yondashuv asosida har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari hisobga olindi. Natijada motivatsion ta'lim muhiti yaratishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keldi.

Bundan tashqari, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning nafaqat bilimlarni o'zlashtirishi, balki mustaqil fikrlashi, kommunikativ faoliyati va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi motivatsion omillar ham tadqiq etildi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi rolini kuchaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiylik, obyektivlik, izchillik va pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyillari asosida tahlil qilindi. Natijalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning samarali pedagogik imkoniyatlari va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon miqyosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda barkamol avlodni tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini shakllantirish pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, emosional va ijtimoiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois mazkur bosqichda o'quv motivlarini samarali shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi.



Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida an'anaviy ta'lim paradigmasi o'rnini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi innovatsion ta'lim modeli egallamoqda. Mazkur modelda o'quvchi ta'lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini chuqur tadqiq etishni taqozo qiladi. Zero, motivatsiya o'quv faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji, intilishi va muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda motivatsiya shaxs faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Motiv – insonni muayyan faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj, qiziqish va maqsadlar tizimi bo'lsa, o'quv motivatsiyasi esa o'quvchining bilim olishga bo'lgan ichki rag'bat, ta'lim jarayoniga ongli munosabati va bilishga intilish ehtiyojini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda motivatsion jarayonlar emotsional taassurotlar, qiziqish, rag'bat, ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sirlar asosida shakllanadi. Shu sababli mazkur davrda o'quv motivlarini rivojlantirishda pedagogik omillar va imkoniyatlarning o'ri alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv motivatsiyasining pedagogik mohiyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirish murakkab pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchining bilishga qiziqishi, maqsad sari intilishi hamda o'quv faoliyatiga faol ishtirokini ta'minlovchi ichki omildir ^[8].

Boshlang'ich yoshdagi bolalarda motivatsion jarayonlar emotsional holatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu sababli ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish, rag'batlantirish va muvaffaqiyat vaziyatlarini tashkil etish muhim pedagogik omil hisoblanadi ^[9].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi motivlar ustuvorlik qiladi:

- bilishga qiziqish motivlari;
- muvaffaqiyatga erishish motivlari;
- ijtimoiy motivlar;
- o'yin faoliyati bilan bog'liq motivlar;
- rag'bat va baholashga asoslangan motivlar ^[10].

O'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Boshlang'ich ta'limda motivatsiyani rivojlantirishning samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik imkoniyatlardan oqilona foydalanishga bog'liq. Tadqiqot natijalari quyidagi pedagogik imkoniyatlarni aniqlash imkonini berdi:

Interfaol metodlardan foydalanish. Interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ta'limga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi ^[11]. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "FSMU", "Baliq skeleti" kabi metodlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi.

O'yin texnologiyalarining motivatsion ahamiyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin faoliyati tabiiy ehtiyoj hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va gamifikatsiya elementlari o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi ^[12].

Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Multimedia vositalari, animatsiyalar va elektron platformalar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarda yuqori emotsional qiziqish uyg'otadi ^[13].

Rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Rag'batlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida motivatsiyani rivojlantirishning muhim vositasidir. Pedagogik rag'batlantirish orqali o'quvchilarda o'ziga ishonch, muvaffaqiyatga intilish va ta'limiy faollik shakllanadi ^[14].

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari deganda, ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi shaxsi, oilaviy muhit hamda ta'limiy kommunikatsiyaning motivatsion ta'sir salohiyati tushuniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o'yinli ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish, rag'batlantirish usullari va raqamli ta'lim vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivlarini shakllantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlari ularning motivatsion ehtiyojlarini shakllantirishda alohida yondashuvni talab etadi. Bu yoshdagi bolalarda taqlidchanlik, emotsionallik, o'yin



faoliyatiga moyillik, o'qituvchi shaxsiga yuqori darajadagi ishonch kabi jihatlar ustuvor hisoblanadi. Shu bois pedagog tomonidan yaratiladigan ijobiy psixologik muhit, hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni, individual yondashuv va muvaffaqiyat vaziyatlarini tashkil etish o'quv motivlarini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlari hisoblanadi.

Bugungi kunda ayrim hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga qiziqishning sustligi, bilim olishga nisbatan befarqlik, tashqi nazoratga haddan tashqari bog'liqlik kabi muammolar kuzatilmoqda. Mazkur holatlar ta'lim jarayonida motivatsion mexanizmlardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi bilan ham izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishda an'anaviy reproduktiv metodlardan ko'ra innovatsion pedagogik texnologiyalar samaraliroq natija beradi. Ayniqsa, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish imkonini yaratadi ^[15].

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsining motivatsion ta'siri ham muhim omillardan biri hisoblanadi. O'qituvchining kommunikativ madaniyati, pedagogik mahorati va emotsional qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning ta'limga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi ^[16].

Shuningdek, oilaviy muhitning motivatsion ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi hamkorligi, qo'llab-quvvatlashi va ijobiy munosabati o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantiradi ^[17].

Bugungi kunda ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga befarqlik, passivlik va tashqi nazoratga bog'liqlik kuzatilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etishda pedagogik motivatsiya mexanizmlarini tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi va quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

- o'quv motivatsiyasi o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyoji hamda ta'limiy faolligini belgilovchi asosiy psixologik omil hisoblanadi;
- boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish motivatsiyani rivojlantirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo'ladi;
- rag'batlantirish hamda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish o'quvchilarning ichki motivlarini kuchaytirishga xizmat qiladi;
- o'qituvchi va ota-onaning pedagogik hamkorligi motivatsion muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- motivatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati va ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu asosda boshlang'ich ta'lim tizimida motivatsion pedagogika imkoniyatlarini kengaytirish hamda innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish zarur degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. - 2023. - №2. - B. 51-57.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: TDP, 2021. - 244 b.
3. Egamberdiyeva N. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 240 b.
4. Ergasheva G. Oila va maktab hamkorligining pedagogik asoslari. - Toshkent: Tafakkur, 2019. - 214 b.
5. G'ulomov S. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2020. - 318 b.
6. Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 384 b.
7. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. - 296 b.
8. Karimova V.M. Psixologiya. - Toshkent: Noshir, 2019. - 256 b.
9. Muslimov N.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. - 312 b.
10. Nurmatova D. Interfaol metodlardan foydalanish metodikasi. - Toshkent: Tafakkur, 2021. - 198 b.
11. Qosimov B. Pedagogik kommunikatsiya va motivatsiya. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 224 b.
12. Raximov Z.T. Ta'limda o'yinli texnologiyalarni qo'llashning didaktik asoslari // Xalq ta'limi. - 2022. - №4. - B. 44-49.
13. Rasulov A. Rag'batlantirish texnologiyalarining pedagogik ahamiyati // Uzluksiz ta'lim. - 2021. - №1. - B. 66-72.
14. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2018. - 287 b.
15. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017. - 420 b.
16. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: Teacher, 2019. - 276 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.